

**NEFT VA GAZ KONLARI GEOLOGIYASI HAMDA QIDIRUVI
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.31/2025.27.12.GM.03.01. RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDA
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETI**

SAMIYEV ALISHER ALLAYOR O‘G‘LI

**ZIRABULOQ-ZIYOVUDDIN HUDUDIDAGI BO‘R VA PALEOGEN
CHEGARA YOTQIZIQLARI VA IKKITA VAQALI MOLLYUSKALAR
BO‘YICHA ULARNING CHEGARALARINI ASOSLASH**

04.00.05 – Paleontologiya va stratigrafiya

**GEOLOGIYA-MINERALOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

**Geologiya-mineralogiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по геолого-минералогическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
of geological and mineralogical sciences**

Samiev Alisher Allayor o‘g‘li

Zirabuloq-Ziyovuddin hududidagi bo‘r va paleogen chegara yotqiziqlari va ikkitavaqali mollusklar bo‘yicha ularning chegaralarini asoslash..... 3

Самиев Алишер Аллаёр угли

Пограничные отложения мела и палеогена в Зирабулак-Зиаэтдинском регионе и обоснование границы по двустворчатым моллюскам..... 21

Samiev Alisher Allayor ugli

Boundary deposits of the Cretaceous and Paleogene in the Zirabulak-Ziaetdi region and substantiation of the boundary based on bivalve mollusks..... 40

Nashr qilingan ishlari ro‘yxati

Список опубликованных работ 44
List of published works.....

**NEFT VA GAZ KONLARI GEOLOGIYASI HAMDA QIDIRUVI
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc. 31/2025.27.12.GM.03.01. RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDA
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETI**

SAMIYEV ALISHER ALLAYOR O‘G‘LI

**ZIRABULOQ-ZIYOVUDDIN HUDUDIDAGI BO‘R VA PALEOGEN
CHEGARA YOTQIZIQLARI VA IKKITAVAQALI MOLLYUSKALAR
BO‘YICHA ULARNING CHEGARALARINI ASOSLASH**

04.00.05 – Paleontologiya va stratigrafiya

**GEOLOGIYA-MINERALOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/GM269 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiyasi Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb sahifasida (www.ing.uz) va «Ziyonet» axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) tarmog'iga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Xusanov Sul-tonboy To'xtayevich**
geologiya-mineralogiya fanlari doktori

Rasmiy opponentlar: **Yevseeva Galina Borisovna**
geologiya-mineralogiya fanlari doktori
Sharafutdinova Leyla Po'latovna
geologiya-mineralogiya fanlari
bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Etakchi tashkilot: **Mineral resurslar instituti**

Dissertatsiya himoyasi Neft va gaz konlari geologiyasi hamda qidiruvi instituti huzuridagi DSc.31/2025.27.12.GM.03.01. raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning 2026 yil "18" iyun soat 14:00 dagi majlisidagi bo'lib o'tadi. Manzil: 100164, Toshkent shahri, Olimlar ko'chasi, 64-uy; e-mail: igirmigm@ing.uz.

Dissertatsiya bilan Neft va gaz konlari geologiyasi hamda qidiruvi institute Axborot resurs markazida tanishish mumkin (№_4465 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100164, Toshkent shahri, Olimlar ko'chasi, 64-B uy, www.ing.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil "05" iyun kuni tarqatildi
(2026 yil "03" apreldagi 3-raqamli reestr bayonnomasi).



T.X. Shoymurotov
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik
ilmiy kengash raisi, g.-m.f.d., k.i.h.

M.G. Yuldasheva
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy
kengash ilmiy kotibi, g.-m.f.d., k.i.h.

A.N. Bogdanov
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy
kengash huzuridagi bir martalik ilmiy
seminarning raisi o'rinbosari, g.-m.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda hozirgi vaqtda geologik ishlarning asosiy vazifalaridan biri foydali qazilmalarning yangi maydonlarini qidirish va izlash bo‘lib, ular hududdagi yer qobig‘ining geologik tuzilishini batafsil o‘rganish va stratigrafik tadqiqotlar natijalariga asoslangan geologik xaritalar tuzish orqali amalga oshiriladi. Shu munosabat bilan, ustuvor geologiv vazifalardan biri bo‘lgan kesmalarni tabaqalash, xaritalanadigan mahalliy stratigrafik bo‘linmalarni ajratish, ularni tabaqalash va taqqoslash (korrelyatsiya), foydali qazilmalar bilan bog‘liq bo‘lgan ma‘dan qamrovchi stratigrafik interval yoki stratonlarni aniqlash nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Hozirgi vaqtda dunyoda turli xil foydali qazilmalarni (oltin, uran, fosforitlar, qurilish xom-ashyosi) qamragan gorizontlar, svitalar, kenjasvitalarning chegaralarini aniqlashga imkon beradigan, ikkitavaqali mollyuskalar bo‘yicha tuzilgan biostratigrafik sxemalardan foydalanib, yangi tavsiliy stratigrafik sxemalarni ishlab chiqish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu bilan birga bo‘r va paleogen yotqiziqlaridagi biotsenozlar tarkibini va turlarini aniqlash, ularning fatsial mansubligini va paleoekologik xususiyatlarini ajratish, xar xil turdagi mineral resurslarni qamrovchi qatlamlarning yoshini aniqlash uchun, tayanch yosh darajalarini va qatlamlarning yoshini aniqlash kabi tadqiqotlarga asosiy e‘tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda geologiya-qidiruv ishlarining samaradorligini oshirish, foydali qazilmalarni izlashning stratigrafik qamrovini kengaytirish orqali mamlakatimizning mineral-xomashyo resurslarini ko‘paytirish bo‘yicha muayyan ilmiy natijalarga erishilmoqda. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida “geologiya sohasini yanada jadal rivojlantirish va takomillashtirish” kabi muhim vazifalar belgilab berilgan. Shu munosabat bilan, Zirabuloq-Ziyovuddin hududidagi bo‘r va paleogen davri yotqiziqlarini biostratigrafik va paleogeografik jihatdan o‘rganish, mahsuldor kesmalarni tabaqalash uchun muhimdir hamda xaritalanadigan mahalliy stratigrafik birliklarni ajratishda katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 1 martdagi PF-3578-son “O‘zbekiston Respublikasi geologiya va mineral resurslar davlat qo‘mitasi faoliyatini tubdan mukammallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Qarori, 2019 yil 23 iyuldagi PQ-4401-sonli “Yer qa‘rini geologik jihatdan o‘rganishni yanada takomillashtirish va 2020-2021 yillarda mineral-xom ashyo bazasini rivojlantirish va qayta tiklash davlat dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari hamda 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026-yillarda yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli “Qidirish-razvedka ishlari xajmini tubdan oshirish, xususiy investorlar va yetakchi xorijiy kompaniyalarni keng jalb etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi shuningdek boshqa bu borada qabul qilingan xuquqiy xujjatlar asosida ushbu dissetatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi: Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalarini rivojlanishining VIII – “Yer to‘g‘risidagi fanlar (geologiya, geofizika, seysmologiya va mineral xom-ashyolarni qayta ishlash)” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Nashr qilingan va fond materiallarini tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, 1947-1969-yillar davomida geologik-tasvirlash, qidiruv va ixtisoslashgan tematik ishlar doirasida olib borilgan yuqori bo‘r va paleogen yotqiziqlarining stratigrafiyasini o‘rganish davrda kuchsiz paleontologik xususiyatga ega bo‘lgan mintaqaviy va mahalliy bo‘linmalarni (svitalarni) ajratib ko‘rsatgan holda geologik xaritalar ishlab chiqilgan. Keyinchalik paleolog-stratigraflar - Y.G. Vinokurova, I.M. Abduazimova, R.K. Makarova, A.A. Abdusamatovlarning (1970-2000 yillar) maxsus tadqiqotlari asosida svitalar ishonchli paleontologik tavsifga ega bo‘lgan. Bu esa svitalarning aniq chegaralari va hajmlarini hisobga olgan holda stratigrafik va korrelyatsion sxemalarni ishlab chiqish imkonini bergan. Ushbu sxemalarni takomillashtirish bo‘yicha ishlar bugungi kungacha I.M. Abduazimova tomonidan olib borilmoqda. Biroq, hududda stratigrafiyasi yuqori darajada o‘rganilgan bo‘lishiga qaramay, ba‘zi masalalar hali ham hal etilmagan. Xususan, bo‘r va paleogen davrlari orasidagi chegarani paleontologik jihatdan asoslash masalasi ochiq qolmoqda. Shu munosabat bilan, Zirabuloq-Ziyovuddin hududidagi bo‘r va paleogen yotqiziqlarini ajratish hamda o‘zaro bog‘lashda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan chegara yotqiziqlarini batafsil o‘rganish va ikkitavaqali mollyuskalarni tadqiq etish bo‘yicha ishlarni yo‘lga qo‘yish nihoyatda dolzarb masala hisoblanadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti “Regional” MGTE stratigrafiya partiyasining 22-67/52 raqamli “Zirabuloq hududidagi mezozoy va kaynozoy yotqiziqlarining biostratigrafik va geokimyoviy xususiyatlari” (2022-2025) mavzusidagi ilmiy-amaliy loyihasi doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi ikkitavaqali mollyuska va boshqa faunalarni aniqlash asosida geologik-tasvirlash va bashoratlash-qidirish ishlarida ilmiy asos bo‘lib xizmat qiluvchi Zirabuloq-Ziyoviddin hududi bo‘r va paleogen yotqiziqlarining yangilangan mintaqaviy stratigrafik sxemasini tuzishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

sistemalar orasidagi chegarani asoslash maqsadida bo‘r va paleogen yotqiziqlarining chegara kesmalarini kompleks o‘rganish;

biotsenozlarni o‘rganish orqali bo‘r va paleogen sistemalarining chegara yotqiziqlarida biotik inqiroz izlarini aniqlash;

geologik muhit va biosferaning o‘zgarishlariga ta‘sir ko‘rsatadigan global va mintaqaviy hodisalarni belgilovchi omillarni o‘rganish va aniqlash;

xarita tuzish va geologiya-qidiruv ishlarini olib borishda foydalanish uchun paleotsen stratigrafik sxemasini takomillashtirish;

bo‘r va paleogen chegara oraliqlarida uchraydigan ikkitavaqali mollyuskalarni monografik tavsiflash.

Tadqiqotning obykti Zirabuloq-Ziyovuddin hududini bo‘r va paleogen chegaralariga mansub cho‘kindi jinslar hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti Zirabuloq-Ziyovuddin hududidagi bo‘r va paleogen chegaralariga mansub litologik tarkib va paleontologik obyektlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishini bajarishda stratigrafiyaning paleontologik, litologik, ekologik, fatsial va hodisaviy usullari, kesmalarni tabaqlash va taqqoslash (korrelyatsiya) usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor Zirabuloq-Ziyovuddin hududida, sayyora miqyosidagi katastrofik hodisalar tufayli yuzaga kelgan, cho‘kindi to‘planishida qisqa muddatli tanaffusga mos keluvchi bo‘r va paleogen yotqizmalarining chegarasi biostratigrafik aniqlangan;

o‘rganilayotgan hududning bo‘r va paleogen chegarasidagi biotik hodisalar, sayyora 66-65 million yil avval yuz bergan global abiotik hodisalar bilan aloqadorligi aniqlangan;

ilk bor bo‘r va paleogen chegarasidagi cho‘kindi qatlamlarda radioaktiv va boshqa kimyoviy elementlarning miqdori yuqori bo‘lgan, organik moddalar bilan boyigan sathlar aniqlangan;

yangi avlod geologik xaritalari uchun legenda yaratish maqsadida Zirabuloq-Ziyovuddin hududining yuqori bo‘r (santon-maastricht) va paleosen yotqizmalarining yangilangan stratigrafik sxemasi ishlab chiqilgan;

Zirabuloq-Ziyovuddin kesmalarining bo‘r va paleogen yotqizmalarini chegarasida topilgan va bu chegaralar oralig‘idagi biotsenozlarning taksonomik tarkibini batafsil o‘rganish imkonini beruvchi 12 ta avlodga tegishli 14 ta turga mansub ikkitaqali mollyuskalar monografik ta’riflangan va aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

biostratigrafik tadqiqotlar asosida yuqori bo‘r va paleosen yotqizmalarini mahalliy stratigrafik bo‘linmalarga – svitalarni kenjasvitalarga va pachkalarga batafsil tabaqlash ishlari olib borildi, ularning hajmlari va yoshi aniqlangan;

lito-biofatsial asosda ishonchli legenda variantlarini ishlab chiqish imkoniyatini beruvchi, yirik miqyosli geologik xaritalar uchun cho‘kindi jinslarning shakllanish sharoitlari aniqlangan;

ajratilgan bo‘linmalarining fatsial differensiallashuvi amalga oshirildi, bu esa tayanch kesmalarda aniqlangan mahalliy stratigrafik ketma-ketlik asosida bir yoshdagi svitalarning tarkibi va tuzilishidagi fatsial o‘zgarishlarni aniqlash, ularning hudud bo‘ylab tarqalishini kuzatish hamda yangi avlod geologik xaritalarni tuzish uchun ularni aniqlashtirilgan chegaralarda xaritalash imkonini bergan.

Olingan natijalarning ishonchliligi 716 m litologik-stratigrafik kesmalar, 11 ta paleontologik kuzatuv nuqtalari, 21 ta batafsil geologik kuzatuv nuqtalarini o‘rganish va tavsiflash, organizmlarning qazilma qoldiqlarini qatlam-qatlam to‘plash va o‘rganish bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, bo‘r va paleogen sistemalari o‘rtasidagi chegara aniqlandi, biostratigrafik va geokimyoviy asoslandi; umumiy va mintaqaviy stratigrafik bo‘linmalar chegaralarining aniqlashtirilganligi va paleontologik asoslanganligi bilan ajralib turuvchi, Zirabuloq-Ziyovuddin hududi bo‘r va paleogen chegara yotqiziqlarining yangilangan stratigrafik sxemasi ishlab chiqildi; organik qoldiqlar majmualari orqali stratigrafik ketma-ketligi ajratilgan svitalarning Umumiy (O‘zbekiston USSH) va Xalqaro (XSSH) stratigrafik shkala va qo‘shni hududlar bo‘limlari bilan bog‘landi, bu xaritalanayotgan svitalarning korrelyatsiyasini va yoshini aniqlashning ishonchliligini sezilarli darajada oshiradi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, mahalliy stratigrafik birliklarni ajratgan holda ularning litologik, paleontologik va ekologik xususiyatlarga asoslan holda tayanch kesmalar batafsil tabaqalandi; mintaqaviy va global hodisalar bilan bog‘liq bo‘lgan, Umumiy va Xalqaro stratigrafik shkalalarning birliklari bilan taqqoslashni ta‘minlovchi, stratigrafik ketma-ketlikda korrelyatsion yosh darajalar ajratildi; hozirgi vaqtda geologik-tasvirlash ishlarida legendalar tuzish va xaritalashda qo‘llanilayotgan mahalliy birliklarning yoshi, tarkibi aniqlandi.

Tadqiqot natijalarini amaliyotga tadbiiq qilish. Zirabuloq-Ziyovuddin hududidagi bo‘r va paleogen davrlariga oid chegara yotqiziqlarining biostratigrafik va fatsial xususiyatlarini aniqlash bo‘yicha erishilgan ilmiy natijalar asosida:

bo‘r va paleogen chegaradosh yotqiziqlarining yangilangan stratigrafik ishlab chiqilgan sxemasi “O‘zbek geologiya qidiruv” AJ da joriy qilingan (O‘zbekiston Respublikasi tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligining 2025 yil 17 noyabrdagi 08-4332-son ma‘lumotnomasi). Natijada, sxemadan yirik miqyosli geologik-tasvirlash va qidiruv ishlarini amalga oshirishda, o‘rganilayotgan hududning yuqori bo‘r va erta paleogen davridagi geologik rivojlanish tarixini ishonchli talqin qilish imkonini bergan;

biotsenozlarning zamon va makonda o‘zgarishi ko‘rinishidagi ekotizim modeli, “O‘zbek geologiya qidiruv” AJ da joriy qilingan (O‘zbekiston Respublikasi tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligining 2025 yil 17 noyabrdagi 08-4332-son ma‘lumotnomasi). Natijada, chegaraviy bo‘r/paleogen davr oralig‘ida sedimentatsion havzaning geologik rivojlanish holatini tushuntirish uchun asos sifatida qo‘llanilgan;

aniqlangan biostratigrafik va fatsial o‘zgarishlar asosida bo‘r va paleogen sistemalari orasidagi chegarani aniq belgilovchi abiotik va biotik hodisalar aniqlangan bo‘lib, “O‘zbek geologiya qidiruv” AJ da joriy qilingan (O‘zbekiston Respublikasi tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligining 2025 yil 17 noyabrdagi 08-4332-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, bo‘r/paleogen chegara yotqiziqlaridagi svitalarni batafsil ajratish va ularning chegaralarini aniq qiyoslash imkoniga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya tadqiqotining asosiy natijalari 2 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilindi.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 10 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 4 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat. Dissertatsiya hajmi 118 bet, 8 ta ilova.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'ekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Zirabuloq-Ziyovuddin hududida yuqori bo'r va paleogen davrlariga oid yotqiziqlarning geologik o'rganilganlik holati”** deb nomlangan birinchi bobida 1947-2024-yillarda hududda olib borilgan geologik tadqiqotlar to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, tadqiqotlarning har bir bosqichidagi ish natijalari ko'rsatilgan; ularning geologiya-qidiruv ishlari uchun ahamiyati aniqlangan.

1.1-1.2 § bo'limlarda hududdagi yuqori bo'r va paleotsen yotqiziqlarining litologik-stratigrafik o'rganilganligiga oid fond va nashr etilgan ishlar batafsil tahlil qilingan. Ushbu muammo yuzasidan O.S.Vyalov (1947 y.), R.Y. Muzafarova (1953-1963 yy), N.N. Salkova va b. (1956 y.), D.N. Glushnovskaya (1959 y.), I.S. Suleymanov (1972 y.), V.S. Sheyn va b. (1966 y.), V.P. Rogachev va b. (1968 y.), S.X. Mirkamalov va b. (1972 y.), R.K. Makarova (1978-1987-yillar), A.A. Abdusamatov (2007-yil), A.D. Ravshanov va b. (2022 y.), I.M. Abduazimov va boshqalarning (2007-2025 yy.) ishlari batafsil ko'rib chiqilgan.

O'rganilgan yotqiziqlarning yoshi ko'p hollarda ikkitavaqali mollyuskalar orqali aniqlangani sababli, dissertatsiya ishida ushbu guruh haqida qisqacha ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, ikkitavaqali mollyusklarning sistematikasi va ularning monografik tavsifi bilan shug'ullangan tadqiqotchilar ham ko'rsatib o'tilgan.

O'zbekistonda ikkitavaqali mollyuskalarni o'rganish bilan S.X. Mirkamalo,va, X.X. Mirkamalov, R.Y. Muzafarova, R.K. Makarova, Y.G. Vinokurova, A.A. Abdusamatov, I.M. Abduazimovalar shug'ullanishgan. Ular O'zbekistonning bo'r va paleogen yotqiziqlarini biostratigrafik ajratishga katta hissa qo'shishgan. Bu olimlar, ikkitavaqali mollyuskalar nafaqat tog' jinslarining yoshini aniq aniqlashini, balki dunyoning boshqa xududlari (Daniya, Shvetsiya, Qrim, Kaspiy, Turkmaniston, Tojikiston va boshqalar) stratotipik kesmalari bilan keng miqyosda mintaqalararo taqqoslash uchun ham foydalanish mumkinligini isbotlab berishgan.

O'tkazilgan tahlillar yuqori bo'r va paleogen yotqiziqlarining yuqori darajada o'rganilganligini ko'rsatdi, ammo mahalliy va umumiy stratigrafik bo'linmalar o'rtasidagi chegaralarni o'tkazishdagi ba'zi masalalar to'liq o'rganilmagan yoki munozarali bo'lib qolmoqda, bu esa keyingi tadqiqotlarni talab qiladi.

Dissertatsiyaning "**Yuqori bo'r (santon-maastrixt) va quyi-o'rta paleogen (paleotsen-eotsen) yotqiziqlarining stratigrafiyasi**" nomlangan ikkinchi bobida Zirabuloq-Ziyovuddin hududining yuqori bo'r va quyi paleogen yotqiziqlarini tabaqalash va taqqoslash (korrelyatsiya) hamda ular asosida yangilangan stratigrafiya sxemani ishlab chiqish imkonini beruvchi stratigrafik tadqiqot usullari bayon etilgan (2.1-§). 2.2-§ bo'limda bo'r va paleogenning chegara intervali svitalarini biostratigrafik tavsifi keltirilgan.

Dissertant tomonidan yuqori bo'r yotqiziqlarining karnap (yuqori kenjasvita) $K_2 st kr_1^3$ va tim $K_2m tm$ svitalari, quyi paleogen davrida akdjar $P_1^{1-2}d-zl ak$, buxoro $P_1^3 t^1bh$, qozoqtov $P_1^3 t^2kz$, shuningdek, eotsenning - nurin $P_2^1i^1 nr$, sug'ralin $P_2^1i^2 - P_2^2b^1 sg$, kultaban $P_2^2 b^2 kl$, maral $P_2^3r mr$ svitalari o'rganilgan.

Karnap svitasining yuqori kenjasvitasini - $K_2 st kr_1^3$ Ziyovuddin tog'larining g'arbiy va shimoli-sharqiy yonbag'irlarida, Zirabuloq tog'larining janubiy, janubi-sharqiy va sharqiy yonbag'irlarida ochilgan. U qumlar, qumtoshlar, kvartsi-jigarrang va yashil-kulrang qatlamlardan tashkil topgan. Qalinligi 16,0-35,0 m.

Karnap svitasining o'rta kenjasvitasida yuvilish bilan yotadi va O'zbekistonning santon yotqiziqlarida (Markaziy Qizilqum, Hisor tizmasining janubi-g'arbiy yonbag'irlari) tarqalgan ikkitavaqali mollyuskalar bilan tavsiflanadi: *Nucula kysylcumensis* Vial., *Septifer dzhangelensis* Vinok., *Megatrigonia pseudoindica* (Arkh.), *M. syrdarienses* (Arkh.), *Exogyra decussata* Goldf.

Tim svitasini $K_2m tm$ Ziyovuddin tog'larining g'arbiy, shimoli-sharqiy, janubi-sharqiy yonbag'irlarida hamda Zirabuloq tog'larining shimoliy, janubiy, janubi-g'arbiy va sharqiy yonbag'irlarida tarqalgan. U ikkita kenjasvitaga bo'linadi. Quyi qismi sariq-jigarrang, kulrang-yashil rangli qumlar, qumtoshlar hamda turli rangdagi alevrolit va gil qatlamlaridan tashkil topgan. Qalinligi 23,0-30,0 m. Karnap svitasini ustida yuvilish bilan yotadi.

Yuqori kenjasvita ham quyi kenjasvita ochilgan hududlarda uchraydi va kulrang-yashil, rang-barang qumtoshlar, sarg'ish-kulrang, och kulrang ohaktoshlardan iborat bo'lib, ular orasida rang-barang gil va alevrolitlarning qatlamlari kuzatiladi. Qalinligi 1,5-18,4 m. Quyi kenjasvita ustida yuvilgan holda yotadi. Qumtosh va ohaktoshlarda ko'plab ikkitavaqali mollyuskalar mavjud: *Chlamys dujardini* (Rom.), *Liostrea lehmannii* Rom., *Amphidonta pyrenaica* (Leym.), *Ceratostreon spinosum* (Math.), *Orbignyana vlasovi* Bobk. Bu mollyuskalar O'rta Osiyo paleobiogeografik viloyatining sharqiy qismidagi maastrixt yarusini yotqiziqlariga xos hisoblanadi.

Akdjar svitasini - $P_1^{1-2}d-zl ak$ chegaralangan tarqalishga ega. U Ziyovuddin tog'larining janubi-sharqiy yonbag'irida, Zirabuloq tog'larining janubiy, janubi-sharqiy, shimoliy, shimoli-sharqiy va sharqiy yonbag'irlarida, ayrim joylarda ochilib qolgan.

Svita oq, kulrang-oq, o'rta-mayda donali, uglerodli moddalari bo'lgan bitumli qumtoshlar; kulrang, bo'lakli-g'o'rashak-uyumli suv o'tlari, bitumli moddalari bo'lgan ohaktoshlardan iborat. Qalinligi 1,5-10,9 m. Maastricht yoshidagi tim svitasi yoki santon yoshidagi karnap svitasi ustida yuvilgan holda yotadi.

Svitada ikkitavaqali mollyuskalarning ko'plab yadrolari va izlari aniqlangan: *Nemocardium čiplyense* Vincent, *Venericardia exllens* Gorbach., *Corbula (Cuneocorbula) regulbiensis* Morris, *Pholadomya crimica* Makarova; shuningdek, foraminiferalar: *Quinqueloculina compacta* Serova, *Q. eoselena* Putria. Bular Belgiya, Bolgariya, Mang'ishloq, Qrim, G'arbiy Turkmaniston va Markaziy Qizilqumning dat va zeland yotqiziqlarida keng tarqalgan.

Buxoro svitasi $P_1^3 t^1 bh$ Ziyovuddin tog'larining g'arbiy, shimoli-sharqiy va janubi-sharqiy yonbag'irlarida hamda Zirabuloq tog'larining shimoli-sharqiy, janubiy, janubi-sharqiy va sharqiy yonbag'irlarida ochilgan. Svita och kulrang oolitli ohaktoshlar, oq qumtoshlardan tashkil topgan. Svita asosida ohaktoshlar bo'lakli-uyumli, gil-bitumli. Svitaning qalinligi 4,58-23,0 m. Akdjar svitasiga yuvilgan holda yotadi.

Svitada ko'plab ikkitavaqali mollyuskalar topilgan: *Modiolus (Brachydontes) jeremejewi* (Rom.), *Venericardia minutula* (Rom.), *Cyrena (Corbicula) forbesi* Desh., *Corbula (Cuoneocorbula) asiatica* Vial.; foraminiferalar: *Annectina paleocenica* Suleym., *Lockhartia aff. luppovi* Bugr. Bular tanet yarusiga xos.

Qozoqto'v svitasi - $P_1^3 t^2 kz$, svita cheklangan tarqalishga ega va Ziyovuddin tog'larining g'arbiy, shimoli-sharqiy yonbag'irlarida ochilib yotadi; Zirabuloq tog'larida ochilmagan.

Svita sariq, kulrang qumlardan iborat. Qalinligi 2,0-10,0 m. Buxoro svitasiga yuvilgan holda yotadi, tarkibida tanet yarusida tarqalgan *Haplophragmoides medius* Subb., *Martinottiella medius* Subb. foraminiferalari kuzatiladi.

Nuri svitasi $P_2^1 i^1 nr$, Ziyovuddin tog'larining g'arbiy, shimoli-sharqiy, janubi-sharqiy yonbag'irlarida tarqalgan; Zirabuloq tog'larida svita ochilmagan.

Svita qo'ng'ir, qoramtir-qo'ng'ir, jigarrang, och jigarrang gillardan iborat. Qalinligi 5,5-22,0 m. Qozoqto'v svitasiga muvofiq yotadi. Gilli qatlamlarida quyidagi foraminiferalar mavjud: *Florius triangulis* Bugr., *Euvigerina praecom-pacta* (Balakhm.), *Gyroidinoides ceterus* N.Byk., *Parella ex gr. panse* Toulm., *Robulus romeri* (Reuss), *R.rostellata* Krajeva, *Haplophragmoides deplanatus* Podob., *Anomalina ammophila* Balakhm. (N.A. Musayeva tomonidan aniqlangan). Ushbu turlar *Mozozovella subbotinae - Pseudogaudryina externa* zonasiga mansub bo'lgan turlar majmuasiga kirib, O'zbekiston umumiy stratigrafik shkalasi, ipr yarusining quyi qismiga xos hisoblanadi (2020 y.).

Sugrali svitasi $P_2^1 i^2 - P_2^2 b^1 sg$ Ziyovuddin tog'larining g'arbiy, shimoli-sharqiy va janubi-sharqiy yonbag'irlarida keng tarqalgan bo'lib, Zirabuloq tog'lari etaklarida esa fragmentar tarzda ochilgan holda uchraydi. Svitaning quyi qismi yashil-kulrang gillardan iborat. Qalinligi 5,0-15,5 m. Nuri svitasi ustida muvofiq yotadi. Svita quyi qismining butun kesmasi bo'ylab gil qatlamlarida quyidagi foraminiferalar uchraydi: *Robulus roemeri* (Reus.), *R.rostellata* Krajeva, *Haplophragmoides deplanatus* Podob., *Anomalina ammophila* Balakhm., *Hopkinsina compacta* (Balakhm.), *Cibicidoides gigas* (Hagenow.), *Bolivina taylori* Howe.,

Uvigerina asperula rossica (Balakhm.), *Globigerina eocaenica* Terquem., *Morozovella* sp., *Bulimina mitgarziana* Balakhm., *Falsoplanulina balakhmatovae* (Bugr.) (N.A. Musayeva tomonidan aniqlangan). Bu turlar Ipr yarusining kechki qatlamlari - *Morozovella aragonensis* - *Bulimina mitgarziana* zonasi uchun xos bo'lgan turlar assotsiatsiyasiga kiradi.

Svitaning o'rta qismi kulrang, och yashil-kulrang gillardan iborat bo'lib, yo'nalishi bo'yicha mergellar bilan almashib boradi. Qalinligi 42,0 m. Quyi qismiga muvofiq yotadi.

Foraminiferalarning ikkita kompleksini o'z ichiga oladi. Birinchi kompleks lyutet yarusining *Acarinina bullbrookii* zonasiga xos bo'lgan: *Falsoplanulina ammophila crassa* (Balakhm.), *Uvigerina botryodes* (Balakhm.), *Hopkinsina compacta* (Balakhm.), *Robulus limbosus* (Reuss.), *Alabama ex gr wilcoxensis* Toulm., *Planulina venezuelana* Nattal., *Pseudononion ispharensis* (N.Byk.) (N.A. Musayeva tomonidan aniqlangan). A.M. Bogomolovning aniqlashicha, kesmaning ushbu qismida *Acarinina bullbrookii* (Bulli) zonal turi mavjud (Abduazimova, Abdusamatov 2007 y.).

Ikkinchi kompleks *Acarinina rotundimarginata* zonasida tarqalgan. Gillarda quyidagi foraminiferalar uchraydi: *Bolivina ex gr wilcoxensis* Cushm., *Bolivina antiqua* Orb., *Globigerina pseudoeocena compacta* Subb, *G. tranversa* Chal., *G. subtriloculinoides* Chal., *G. inaequispira* Subb, *G. pseudoeocena* Subb, *G. frontosa* Subb, *G. vesicular* Averb., *Acarinina rotundimarginata* Subb, *Bivarina elongata* Plummer., *Falsoplanulina ammophila* (Guembel.) (N.A. Musayeva tomonidan aniqlangan). Ushbu turlar lyutet yarusida keng tarqalgan.

Svitaning yuqori qismi to'q yashil gillardan tashkil topgan. Qalinligi 13,0 m. Gillarda barton yarusining quyi qismidagi *Hantkenia alabamensis* zonasiga xos bo'lgan quyidagi foraminiferalar mavjud: *Pseudohastrigerina micra* (Cole), *Uvigerina costellata* Moroz., *Robulus dualis* Bugr., *Planorotalites vesiculus* (Averb.), *Hydromylinella plana* Bugr.

Zirabuloq tog'lari etaklarida svita qisman ochilgan holda uchraydi. U sarg'ish-jigarrang, jigarrang gillardan iborat. Qalinligi 16,0 m. Gillarda lyutet yarusi quyi qismida tarqalgan *Ostrea (Turkostrea) turkestanensis* Vial ustritsalar mavjud.

Kultaban svitasi - P₂² b² kl Ziyovuddin tog'larining shimoliy va janubi-sharqiy etaklarida tarqalgan. Kulrang, qo'ng'ir-kulrang va och yashil ranglardagi yupqa qatlamli gillardan tashkil topgan. Qalinligi 13,5 m gacha. Sugrali svitasiga yuvilgan holda yotadi.

Svitada barton yarusining yuqori qismidagi *Haplophragmoides orfaensis* zonasiga xos bo'lgan foraminiferalar majmuasi mavjud. Ular quyidagilardan iborat: *Haplophragmoides orfaensis* Rod., *H. darbasiensis* Min., *Spiroplectamina facentus* Rod., *Popovia hirta* Suleym., *Baggina valvulinariaformis* N.Byk., *Pseudohastrigerina aff. scharkiverensis* (Berg. va Olss.). (A.M. Bogomolova tomonidan aniqlangan).

Maral svitasi - P₂³r mr Ziyovuddin tog'larining shimoliy va janubi-sharqiy yonbag'irlarida tarqalgan. Svita yashil rangli, yupqa qatlamli gillardan tashkil topgan. Qalinligi 11,0-17,0 m. Kultaban svitasiga yuvilgan holda yotadi.

Svita priabon yarusida ajratilgan *Globigerapsis tropicalis* zonasiga xos foraminiferlari bilan tavsiflanadi: *Robulus limbosus* (Reuss), *Heterolepa pygmea* (Orb), *Baggina iphigenia* Sam., *Cibicides pseudounserianus* Cushman., *Alabama alaensis* (Sam.), *Globigerina bulloides* Orb., *G. frontosa* Subb., *Bolimina ak-suatica* Moroz., *Uvigerina costellata* Moroz., *U. proboscidea* Schutzk., *Bolimina nobilis* (Hantk.) (A.M. Bogomolova tomonidan aniqlangan).

Zirabuloq tog‘lari etaklarida maral svitasi fragmentar holda ochilgan. Svita yashil, yupqa qatlamli gillardan tashkil topgan. To‘liq bo‘lmagan qalinligi 8,0 m. Gillar tarkibida foraminiferalar va ostrakodalar aniqlangan (T.M. Kremlyakova va Sh. Baratova tomonidan aniqlangan), ular priabon yarusiga xos hisoblanadi (1-rasm.).

Biostratigrafik tadqiqotlar natijalarini umumlashtirish asosida yuqori bo‘r (santon-maastrix) va paleogen (dat-tanet) chegara oraliqlarining stratigrafik sxemasi tuzildi. Ishlab chiqilgan sxema turli miqyosdagi geologik xaritalarga tayanch legendalar ishlab chiqish uchun stratigrafik asos sifatida qo‘llaniladi (2.3-§).

Bo‘r va paleogen chegara yotqiziqlari kesmalarini o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, ularning tuzilishida litologik tarkib, fauna qoldiqlari, stratigrafik to‘liqligi va qalinligining o‘ziga xos xususiyatlari kuzatiladi.


Paleotsen yotqiziqlarining yuqori bo‘r yotqiziqlariga transgressiv yotishi aniqlandi. Ba‘zi kesmalarda (Auzikarasoy) maastrixt yarusiga tegishli tim svitaga, tanet yarusiga mansub buxoro svitasi yuviliish bilan yotadi. Boshqa kesmalarda (Chingiztov, Kurgancha, Tim) dat-zeland yarusiga tegishli akdjar svitasi tim svitasi ustida yuvilgan holda joylashgan. Uchinchi turdagi kesmalarda esa (Karnab) akdjar svitasi karnob svitasi ustida yuvilib joylashgan.

Hududda ilk bor mollyuskalar va foraminiferalar asosida dat-zeland yarusi yotqiziqlari - akdjar svitasi hajmida mavjudligi aniqlandi.

Zirabuloq tog‘lari etaklaridagi (Kurgancha, Tim, Ingichka-Djaraquduq kesmalari) buxoro svitasi qo‘shimcha paleontologik tavsifga ega bo‘ldi, bu esa uning yoshini tanet yarusining quyi qismi doirasida aniqlashga hamda Daniya, Turkmaniston, Markaziy Qizilqum (O‘zbekiston) ning bir xil yoshdagi yotqiziqlari bilan taqqoslash imkonini berdi.

Stratigrafik sxema, oldingilaridan farqli o‘laroq, Zirabuloq va Ziyovuddin tog‘lari etaklarida joylashgan aniq kesmalar asosida tuzilgan. Sxemaning bunday tuzilishi Tog‘-kon sanoati vazirligining tasvirlash ekspeditsiyalari tomonidan hozirgi kunda amalga oshirilayotgan yirik miqyosli geologik xaritalash uchun stratonlarni batafsilroq o‘rganishga yordam beradi. Sxemada bo‘r va paleogen chegarasiga alohida e‘tibor berilgan bo‘lib, u planetar miqyosda mezozoy va kaynozoy eratemalari orasidagi chegaraga mos keladi. Ushbu oraliqning o‘rganilgan kesmalarida litologik tarkib va organik qoldiqlar majmualarining keskin o‘zgarishi aniqlandi (1-rasm.).

Dissertatsiyaning **“Bo‘r va paleogen chegarasidagi global hodisalar va ularning Zirabuloq-Ziyovuddin havzasida cho‘kindi hosil bo‘lish jarayonlariga ta’siri”** deb nomlangan uchinchi bobida yer sayyorasida ulkan biotik



Rasm-1. Zirabuloq-Ziyovuddin hududidagi bo'r va paleogen chegarasidagi yotqizilarning stratigrafik sxemasi. Tuzuvchilar: I.M.Abdiazimova, A.A.Samiyev, B.A.Jovliyev, 2024y

inqirozni keltirib chiqargan 66 mln. yil oldin sodir bo'lgan abiotik hodisalar haqida ma'lumotlar mavjud bo'lgan dunyo nashrlari tahlil qilingan. Zirabuloq-Ziyovuddin cho'kindi havzasi hududida yuz bergan ushbu hodisalarning natijalari tahlil qilingan bo'lib, ular cho'kindi hosil bo'lish jarayoniga va biotaning o'zgarishiga ta'sir ko'rsatgan. Dissertant, ko'pchilik tadqiqotchilar kabi, K_2/P_1 chegarasidagi biotik inqirozning sababi Yer yuzida hayotning rivojlanishi uchun juda noqulay sharoitlarni yuzaga keltirgan impakt-hodisa bo'lgan deb hisoblaydi. (3.1-§).

Yirik kosmik jismlarning yerga tushishi natijasida Chiksulub (Meksika), Shiva (Hindiston), Kara (Rossiya) (3.1-§) va boshqa joylarda ulkan kraterlar shaklidagi izlar qolgan. Ularning belgilari quyidagicha: K_2/P_1 chegara qatlamlarda iridiy va boshqa kimyoviy elementlarning anomalialari, zarbali-metamorfik kvars hamda sunamitlarning mavjudligi, shuningdek, qurum qatlamlari ko'rinishidagi yong'in izlari. Asteroidning qulashi litosferadagi magmatik massalarning harakatini faollashtirdi, bu esa vulqon faolligining kuchayishiga sabab bo'ldi va natijada aerazol falokatiga olib keldi. Atmosferaga katta miqdorda zaharli gazlar va kul ko'tarildi. Bu esa haroratning pasayishi, kislotali yomg'irlarning yog'ishi, ozon qatlamining yupqalanishi va boshqa salbiy hodisalarni keltirib chiqardi. Natijada, dengiz va quruqlik ekotizimlarining buzilishiga sabab bo'ldi. Bu chegarada ammonitlar, belemnitlar, ikkitavaqali molluskalar, braxiopodalar, gastropodalar, foraminiferalar, radiolyariyalar kabi ko'plab mezozoy davri guruhlari yo'q bo'lib ketdi. Dinozavrlar, qanotli kaltakesaklar, tishli qushlar va dengiz sudralib yuruvchilari butunlay yo'q bo'lib ketdi. Bu qirilib ketish juda katta miqyosda edi.

Mezozoy biotasining ommaviy qirilib ketishidan so'ng bo'shab qolgan ekologik o'rinlarni, inqirozdan omon qolgan kam sonli kaynozoy organizmlari tezda egalladi. Ular o'z morfologik belgilarini butunlay o'zgartirib, kaynozoy qiyofasiga ega bo'ldi.

Bunday o'zgarishlar Zirabuloq-Ziyovuddin hududi kesmalarida yaqqol qayd etilgan. Yer sharining barcha qit'alarida mezozoy organizmlarining ommaviy qirilib ketish hodisasiga ko'ra, bo'r va paleogenning chegara yotqiziqlari ochilgan joylarda, mezozoy va kaynozoy eratemalariga mos keladigan ushbu sistemalar o'rtasidagi chegara belgilanadi. Tadqiqotchilar Dunyo okeani sathining ancha pasayishini ham shu chegara bilan bog'laydilar. Bu fakt Zirabuloq-Ziyovuddin havzasida ham bo'r va paleogen chegarasida regressiya ko'rinishida namoyon bo'lgan (3.2-§). Boshqa hududlarda uzluksiz cho'kindi to'planishi faqat dengiz havzalari botiqliklarida saqlanib qolgan, aksariyat hollarda chegara intervali kesimlarida "qattiq tub" paydo bo'lishi, cho'kindilarning yo'qligi va organik qoldiqlar komplekslarining almashinishi bilan ifodalangan qisqa muddatli tanaffus kuza-tiladi.

